

## **TIBBIY YO'SINDAGI MAJBURLOV CHORALARINI QO'LLASH TO'G'RISIDAGI ISHLARNI YURITISHDA ADVOKAT ISHTIROKI**

**Mamatkulov Kamoliddin Galabayevich**

Andijon viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Abdurasulov Muxammadqodir**

Andijon viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

**Ro'ziboyev Mavlonbek Durbek o'g'li**

Andijon viloyati yuridik texnikumi o'qituvchisi

### **ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarni yuritishda advokat ishtirokining prosessual asoslari. Tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi ishlarni yuritishda prosessual jarayonining o'ziga xos xususiyatlari haqida ma'lumotlar berilgan.

**Kalit so'zlar:** Alovida toifadagi, jinoyat, prosessual, tibbiy, kodeks, advokat, sud, tergov.

O'zbekiston Respublikasi konstitusiyasining 141-moddasida "Jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam ko'rsatish uchun advokatura faoliyat ko'rsatadi" belgilab qo'yilgan. Jinoyat prosessual huquqida alovida toifadagi jinoyat ishlarni yuritish o'z xususiyatlari bilan ajralib turadi. Bu turkumidagi jinoyat ishlarni yuritish O'zbekiston Respublikasi jinoyat prosessual kodeksining o'n uchinchi bo'limda tartibga solingan bo'lib, mazkur bo'limning 566 — 581-moddalari asosida tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash to'g'risidagi masalalarni ko'rish tartibi belgilangan.

Jinoyat sodir etganidan keyin ruhiy holatining buzilishi yuzaga kelgan shaxsning jinoyati to'g'risidagi ish bo'yicha shaxsda ruhiy holatining jinoyat sodir etganidan keyin yuzaga kelgan va jazoning qo'llanilishini istisno etadigan tarzda buzilganligi isbotlanishi lozim.

Aqli norasolik holatida ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganlik to'g'risidagi ish yuzasidan quyidagilar isbotlanishi lozim:

1) jinoyat ob'yekti; jinoyat tufayli yetkazilgan ziyoning xususiyati va miqdori, jabrlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar;

-sodir etilgan jinoyatning vaqtin, joyi, usuli, shuningdek Jinoyat kodeksida ko'rsatib o'tilgan boshqa holatlari; qilmish va ro'y bergan ijtimoiy xavfli oqibatlar o'rtaqidagi sababiy bog'lanish;

- ayblanuvchining, sudlanuvchining shaxsini tavsiflovchi holatlar.

2) qilmishni sodir etgan paytida shaxsning ruhiy holati surunkali yoki vaqtincha buzilganligi, aqli zaifligi yoki ruhiy holatining boshqacha tarzda buzilganligi, bularning oqibatida u aqli norasolik holatida bo'lganligi, ya'ni o'z harakatlarining (harakatsizligining) ahamiyatini anglay olmaganligi yoki ularni boshqara olmaganligi;

3) mazkur shaxsning surishtiruv, dastlabki tergov va sud muhokamasi vaqtidagi ruhiy holati.

Jinoyat sodir etganidan so'ng ruhiy holati buzilgan shaxsning ishi bo'yicha, xuddi shuningdek ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida sodir etgan shaxsning ishi bo'yicha shaxsning bundan buyongi xulq-atvori uning o'zi va atrofdagilar uchun xavf tug'dirishi mumkinligi yoki mumkin emasligi, uning davolanishga muhtojligi yoki muhtoj emasligi, unga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralar qo'llanilishiga zarurat borligini yoki yo'qligini va aynan qanday choralar qo'llash lozimligini hal qilish uchun asos bo'ladigan holatlar isbotlanishi lozim.

O'zbekiston Respublikasi jinoyat prosessual kodeksining 570-moddasida-shaxsning tergov va sud harakatlarini yuritishdagi ishtiroki belgilangan.

O'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralar qo'llanishi to'g'risida ish yuritilayotgan shaxs sog'aysa yoki unda beqaror remissiya holati yuz bersa va shu tufayli so'roqlarda to'g'ri ko'rsatuv bera olsa hamda boshqa tergov va sud harakatlarida ishtirok eta olsa, surishtiruvchi, tergovchi va sud bu shaxsga tergov qilishda va sud muhokamasida qatnashish hamda o'zini himoya qilish huquqini amalga oshirish imkonini berishi lozim.

O'ziga nisbatan tibbiy yo'sindagi majburlov choralar qo'llash to'g'risida ish yuritilayotgan shaxs: unga qanday ijtimoiy xavfli qilmish sodir etganlik uchun ayb qo'yilayotganini bilishga; ko'rsatuv berishga; dalillar taqdim qilishga; iltimoslar qilishga; surishtiruv yoki dastlabki tergov tamomlanganidan so'ng ishning barcha materiallari bilan tanishib chiqishga; himoyachiga ega bo'lishga; sud muhokamasida qatnashishga; rad qilishga; surishtiruvchi, tergovchi, prokuror va sudning harakatlari hamda qarorlari ustidan shikoyat qilishga haqlidir.

Surishtiruvchi, tergovchi tibbiy yo'sindagi majburlov choralarini qo'llash ishini yuritishni boshlash va sud-psixiatriya ekspertizasi tayinlash to'g'risidagi qarorni e'lon qilganda mazkur shaxsga ushbu moddaning ikkinchi qismida nazarda tutilgan huquqlarini tushuntirib beradi. Huquqlar tushuntirilganligi to'g'risida bayonnomaga tuziladi.

Mazkur shaxs alohida tergov va sud harakatlarini yuritish vaqtida Jinoyat-prosessual Kodeksdagi ayblanuvchi va sudlanuvchilar uchun belgilangan huquqlarga ham ega.

O‘zbekiston Respublikasi jinoyat prosessual kodeksining 571-moddasida himoyachining ishtiroki kafolatlangan.

Tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash to‘g‘risidagi ishni yuritishda sud-psixiatriya ekspertizasini tayinlash haqida qaror chiqarilgan vaqtdan boshlab himoyachining ishtirok etishi shart.

Ishga kirishgan vaqtdan boshlab himoyachi, basharti himoyasi ostidagi shaxsning sog‘lig‘i halal bermasa, u bilan holi uchrashishga haqli, shuningdek jinoyat-prosessual kodeksining 53-moddasida nazarda tutilgan boshqa barcha huquqlardan ham foydalanadi.

Sud-psixiatriya ekspertizasi o‘tkazish to‘g‘risidagi qaror yoki ajrimni ijroga yuborishdan oldin surishtiruvchi, tergovchi yoki sud u bilan himoyachini tanishtirishi va uning quyidagi huquqlarini ta’minalashi zarur: tayinlangan ekspertni yoki umuman ekspertiza muassasasini rad qilish; muayyan shaxsni ekspert qilib tayinlashni iltimos qilish; ekspertning oldiga qo‘s Shimcha savollar qo‘yish; ekspertiza o‘tkazilayotganda qatnashish uchun ruxsat so‘rash. Surishtiruvchi, tergovchi yoki sud himoyachining iltimosnomasini, basharti asoslar bo‘lsa, qondiradi va ekspertizani tayinlash to‘g‘risidagi qaror yoki ajrimga tegishli qo‘s Shimchalar va o‘zgartishlar kiritadi.

Agar sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasiga ko‘ra, himoya ostidagi shaxs ruhiy holatining buzilishi jinoyat sodir etilgandan so‘ng yuzaga kelgan yoki u ijtimoiy xavfli qilmishni aqli norasolik holatida sodir etgan bo‘lsa yoxud uning aqli rasoligini istisno etmaydigan, biroq ruhiy holati o‘zini himoya qilish huquqini mustaqil amalga oshirishini qiyinlashtiradigan tarzda buzilgan bo‘lsa, ushbu moddaning birinchi qismida nazarda tutilgan himoyachining ishda ishtirok etishi shartligi haqidagi qoida amal qilishda davom etadi.

Keyinchalik sud-psixiatriya ekspertizasining xulosasi asosida shaxs aqli raso va ruhiy sog‘lom deb topilsa, ishda himoyachining ishtiroki masalasi umumiy tartibda hal qilinadi.

Sud majlisida prokuror va himoyachi ishtirok etishi shart.

Sud tergovi prokurorning ishni sudga oshirish to‘g‘risidagi qarorni o‘qib eshittirishidan boshlanadi. Shundan so‘ng sud taraflarning ishtirokida tibbiy yo‘sindagi majburlov choralarini qo‘llash uchun asoslar mavjudligini tasdiqlaydigan yoki rad etadigan dalillarni tekshiradi: so‘roq qiladi, ko‘zdan kechirish o‘tkazadi, hujjatlarni o‘qib eshittiradi, ekspertlarni tinglaydi, haqiqatga erishish uchun zarur bo‘lgan boshqa harakatlarni bajaradi.

Sud tergovi tamomlanganidan so‘ng sud taraflarning muzokarasiga o‘tadi. Muzokarada prokuror, shuningdek jabrlanuvchi, fuqaroviylar da’vogar, fuqaroviylar javobgar va ularning vakillari ishtirok etadilar. Muzokaraning oxirida himoyachi so‘zga chiqadi. Oxirgi e’tiroz bildirish huquqi ham unga beriladi. Ximoyachidan muzokara nutqida dalillar maqbuligini isbotlashi yoki e’tiroz bildirishi, himoyasidagi shaxs manfaatlari uchun ta’sirchan nutq so‘zlashi lozim. Buning uchun advokat o‘z ustida ishlab professional kasb ko‘nikmalarini va notiqlik san’atini egallashi zarur.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)**

- 1.O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.T: “Adolat”2021 y.-96 bet.
2. O‘zbekiston Respublikasining Jinoyat-prosessual kodeksi  
<http://test.lex.uz/docs/111460>.
- 3.Advokatura. Darslik. Mualliflar jamoasi. - Toshkent: TDYU, 2019. -195 bet.
- 4."Advokatura to‘g‘risida" Qonun. <https://www.lex.uz/ru/docs/-54503>